E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

ISAJON SULTONING “BOQIY DARBADAR” ROMANIDAGI RIVOYAT VA AFSONALAR POETIKASI

Abdulxamidova Xikmatoy Axrorjon qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Tel: 90 848-96-00 e-mail: abdulhamidovahikmatoy@gmail.com

Sobirova Mohlaroy Sodiqjon qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti talabasi

Tel: 90 367-74-71 e-mail: mohlaroysobirova03@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanidagi rivoyat va afsonalar kompozitsiyasi tahlil qilingan. Maqolada ko‘tarilgan g‘oya rivoyat va afsonalarning romanda tutgan o‘rni haqida undagi vazifasiga qaratilgan.Asar Muborak zotga qo‘l ko‘tarib azobli boqiylikka mahkum bo‘lgan etikdo‘z haqida, Allohga qarshi chiqib Boqiy odam yaratmoqchi bo‘lgan Professor Ziyo haqidagi turfa xil voqea-hodisalarga guvoh bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar

Ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, duoyibad, Avliyo,Samun odami,Shahri Haybar, Bobo toshbaqa.

ПОЕТИКА ЛЕГЕНД И МИФОВ В РОМАНЕ ИСАДЖОНА СУЛТОНА “ВЕЧНЫЙ СТРАННИК”

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется композиция легенд и мифов в романе Исаджона Султана «Вечный Дарбадар». Идея, поднятая в статье, состоит в том, чтобы акцентировать внимание на роли повествований и мифов в романе.

Ключевые слова

Миф, легенда, роман, композиция, экспозиция, узел, ход событий, кульминация, разгадка, дурная молитва, святой, человек Самун, Шахри Хайраб, черепаха Бобо.

POETICS OF LEGENDS AND MYTHS IN ISAJON SULTAN’S NOVEL “THE ETERNAL WANDERER”

ANNOTATION

This article analyzes the composition of legends and myths in Isajon Sultan’s novel “Eternal Darbadar”. The idea raised in the article is to focus on the role of narrations and myths in the novel.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Keywords

Myth, legend, novel, composition, exposition, knot, course of events, culmination, solution, bad prayer, Saint, Samun man, Shahri Haybar Bobo tortoise.

O‘zbek xalq yozuvchisi Isajon Sultonning asarlarini o‘qir ekanmiz inson xarakteridagi milliy ruhni, milliy mentalitetni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchining “Boqiy darbadar” romani bir qancha afsona va rivoyatlarni o‘zida mujassam etadi. Romanni oddiy o‘quvchi tushunishi uchun anchagina bilimga ega bo‘lishi talab etiladi. Romanni o‘qish davomida o‘quvchi uning mohiyatini anglash uchun yetarli darajada fikrlaydi va bu uning tafakkuri, dunyoqarashi kengayishiga sabab bo‘ladi. Uning mohiyati va maqsadi shundan iboratki: ma’naviy va ruhiy qadriyatlarni inkor qiluvchilarga nisbatan yagona Allohning yaratganning qudratini anglash unga shukronalik, ota-onaga hurmat ehtirom Vatani, xalqiga va millatiga muhabbat odam bolasi uchun eng oliy qadriyat ekanligini anglatish, his qildirishdir.

“Roman”– fransuz tilidan olingan bo‘lib eposning bir turi ma’nosini anglatgan. Ammo keyinchalik badiiy adabiyotdagi roman janr sifatida alohida ajralib rivojlanganidan so‘ng sevgi-sarguzashtlarni to‘qima tarzda aks ettiruvchi asarlar tushunila boshlagan. “Boqiy darbadar” romanida insonning xususiy hayoti jamiyat hayoti bilan bog‘lab, keng tasvirlangan. Muayyan shaxsning taqdiri, uning o‘z-o‘zini anglab yetishi: ongining uyg‘onishi, xarakterining tashkil topishi va shakllanishi roman markazida turadi, shaxslar taqdiri vositasida ijtimoiy hayotning u yoxud bu jihatlari ifodalanadi. Romanda yozuvchi uchun ichki dunyoning –ruhning kechinmalarini tashqi qiyofa, holat va xatti-harakatlardagi ko‘rinishini tasvirlagan.

“Rivoyatlar afsonalarga hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalar to‘laligicha ajdodlarimiz tomonidan o’ylab topilgan to‘qima hikoyalardan iborat bo‘lsa rivoyatlar hayotda ro‘y bergan qandaydir tarixiy voqealarga asoslanadi. Ular mazmunan afsonalardan deyarli farq qilmaydi, ammo bu asarlar zaminida aniq tarxiy dalil ildizi mavjud bo‘ladi.” “Boqiy darbadar” romanida rivoyat va afsonlar o‘quvchiga romanni tushunishga uni mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Romandagi rivoyat va afsonalar an’anaviy uslubiy shaklga ega emas, rivoyat asosida voqelikda tarixiy shaxs bilan bog‘liq hodisalar yotadi. Rivoyatlar o‘tmish voqealari haqida bizga ma’lumot berar ekan bizni ana shu davr muhitga olib boradi. Ularda tariximiz sahifalari, mashhur allomalar hayotidan lavhalar, mardlarning jasurligi, ayrim joy nomlarning paydo bo‘lishi o‘z aksini topadi.

Afsona—fors tilida fantastika sehr-u jodu hamda hayotiy uydirmalarga asoslangan nasriy hikoyalarni amglatadi. Osmon, yer, suv parilarining ishlari, ruhlar, yovuzlik va ezgulik ilohlari, dev, yer yuzida odamning paydo bo‘lishi, olamning tuzilishi va hokazolarning asosiy mavzusidir. Romanda Duoyibad, Samum odami, Tyinshan tog‘laridagi avliyo, Bobo toshbaqa, Haybar shahri kabi rivoyat va afsonalar uchraydi. Roman g‘oyasi insonga qiyomatni kuchli sezdirish bu dunyoda ro‘y bergan har bir hodisa qiyomat degan ulkan imtihon kunida so‘ralishini jonli his qildirishdan iborat. Roman har bir odamni o‘yga toldiradi ana shu boqiy darbadar insonni o‘rnida o‘zini qo‘yib ko‘radi. Aslida, yozuvchining maqsadi ham shu. Adib bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda o‘zi ta’kidlaganidek: “Aslida

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

haqiqiy darbadar u emas haqiqiy darbadar siz va men". Yozuvchi nazarda tutgan asl darbadarlikni anglash uchun avvalo darbadar so'zini ma'nosini tushunish kerak.

Asl darbadarlik—Alloh buyurgan yo'ldan chiqib dunyo lazzatlariga uning ishlariga aldanib qiyomat va qadrni unutish, Yaratgan buyurgan solih amallarni qilish o'rniga amaldorlar ko'ziga yaxshi ko'rinish uchun qabih amallar sari qadam bosish demakdir. Darhaqiqat, inson nima uchun qayerda yashayotganini bilmas ekan darbadar hisoblanadi. "Boqiy darbadar" romanidagi darbadar etikdo'z ham o'z yo'lidan adashgan, nimaki qilmasin bari bekor bo'lyotgan, hayotining mazmuni yo'q bir kimsa bo'lib qolgan edi.

"Boqiy darbadar" romani uch qism yigirma uch hikoyadan iborat. Birinchi qismda oltita, ikkinchi qismda o'n bitta, uchinchi qismda oltita hikoya va xotimadan iborat. Ularning tarkibida bir qancha rivoyat va afsonalar uchraydi. "Boqiy darbadar" da tilga olingan boqiy inson yaratish g'oyasi, bu yo'lidagi harakatlar ham Xudoga tenglashmoqchi bo'lishga urinish, uning azaliy qonunlarini o'zgartirman deb osiylik qiladi. Buning uchun Xudo insonlarni jazolaydi. Isajon Sulton romanda rivoyat va afsonalardan juda samarali va o'rinli foydalangan. Romanda har bir rivoyat va afsona o'ziga xos o'ringa ega asarni shularsiz tasavvur etish qiyin. Rivoyatlar insonga Allohni eslatishni uni yo'l-yo'riqlariga amal qilishni uni borligiga iymon keltirishni eslatadi.

Roman qahramonlari an'anaviy romanlarda uchramaydigan noodatiy qahramonlardir: Etikdo'z—Muborak zotning qarg'ishi tufayli darbadarlikka mahkum etiladi, Muborak zot—Allohning payg'ambarlaridan biri, u yakkaxudolikni targ'ib qilgani uchun dorga tortiladi, Hazrat—etikdo'zning qismatini bashorat qiladi, Chol, nabira, Professor Ziyo genetik olim u umrboqiy mukammal odam yaratadi, ammo qilgan ishidan keyinchalik afsus chekadi, Professor Ziyoning o'g'li—otasi uning maktubi tufayli iymonga keladi, xatolarini tushunib yetadi, va yaxshilik izlab yo'lga chiqqan lo'lilar roman qahramonlaridir. Romanda keltirilgan rivoyatlar kompozitsiyasiga to'xtalib o'tsak: "Duoyibad"—asar arxitektonikasida uning mazmuni bilan bevosita bog'liq "Duoyibad" hikoyaning ramziy-falsafiy nomi. Sarlavhaning o'zidayoq asarda noxush voqea yuz berishi ifoda qilingan. O'quvchida duoyibad so'zini o'rniga qarg'ish so'zini qo'llasa ham bo'ladi-ku degan savol paydo bo'lishi ham tabiiy hol albatta, lekin nega qarg'ish emas duoyi bad qo'llagan?! Duoyibad ya'ni kimsaga yomonlik tilab qilingan duo. Duo ijobatsiz qolmaganidek albatta, duoyibad ham ijobatsiz qolmaydi, u albatta atalgan yeriga yetib bormasdan qo'ymaydi degan falsafiy fikrga ishora borki, bu fikr rivoyat to'qimasiga chuqur singdirib yuborilgan.

"Duoyibad" rivoyatining ekspozitsiyasi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: "Quyosh nayza bo'yi ko'tarilgan. Shahardagi qatl tomoshasi davom etmoqda edi. Atrofdagi daraxtlaring shoxlari qora chumchuqlarga to'lib ketgan, ular olomonga va etikdo'zga ma'nosiz ko'zlarini tikkancha, nimanidir kutgan kabi qing'ayib qarab turishardi" Bunday tasvir ifodasi o'ta real, tabiiy o'quvchi olamiga tanish vaziyatdir. Asarning ilk jumlalari yordamida o'sha paytdagi holatni ya'ni hayotdan umidi uzilgan, umrining so'ngi lahzalarini yashab turgan inson haqida ekanligini anglaydi. Chumchuqlarning olomonga va etikdo'zga ma'nosiz ko'zlarini tikkancha, nimanidir kutgan kabi, qing'ayib qarab turishi uning boshiga tushadigan falokatdan darak berayotganini tushunib olish mushkul emas.

"Badiiy asardagi tugun badiiy asar syujetida konflikt va xarakatning paydo bo'lishi, boshlanishiga sabab bo'ladigan voqea" –tugun sanaladi. Demak, tugun harakatni belgilaydi, voqealar rivojiga turtki

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

bo‘ladi, unga aniq yo‘nalish beradi. Ko‘p asarlarda asosiy voqea tugundan so‘ng yuz beradi. Tugun kitobxonning asar mavzuini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi, o‘quvchini voqealar sari yetaklaydi, qahramonlar taqdiriga qiziqtiradi. Asardagi tugun etikdo‘zning olomonga qo‘shilib mahkumni mazax qilishi, mahkum haddan tashqari holdan toyganidan va u shundoqqina etikdo‘zning devori yoniga kelib qolgani, holsizlikdan gandiraklab ketib bir damgina nafas rostlash uchun etikdo‘zning devoriga suyanganida, etikdo‘zning: “Hali sen meni devorimga suyanadigan bo‘ldingmi?—Imillama!—deb qichqirib uni shiddat bilan ikki qo‘llab turtib yuboradi va Muborak kishi yerga yiqilib tushadi, ammo lom-lim demay kelayotganda O‘lim lashkari jallodlaridan ikkitasi uni yana oyoqqa turg‘izishadi va bu orqali ijodkor badiiy tugunni keltirib chiqaradi.

Konflikt badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasidagi yuzma-yuz kurash yoki qahramonning o‘z atrofiga qurshab olgan muhiti, o‘z-o‘zi bilan ruhiy to‘qnashuvi, olishuvidir. Konflikt – syujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch. Agar syujetni avtomobil deb faraz qilsak , konflikt uning dvigatelidir; syujet—tashqi ko‘rinish bo‘lsa konflikt uning ichki oqimidir. Yozuvchi badiiy syujet orqali muayyan davrning ijtimoiy konfliktlarini ifodalaydi, ularga o‘z munosabatini bildiradi, qahramonlar idealini ochadi, estetik idealini olg‘a suradi. Romanda etikdo‘zning iymonsiz bir kishi emasligi haqida tafakkur tarzimizda bir chiroq nur sochgandek bo‘ladi. “Ey Xudo, shu ishni bekor qildim… Balki rostdan ham, O‘ziga yaqin bir odam bo‘sa-ya? Osmondagi anavi oq bulut izidan qolmasdan ergashib yurgani-chi? Bu kishining aytganlari shak-shubhasiz amalga oshadi… shu qadar muborakki, hali tug‘ilmasidan u suv ichadigan buloq, unga soya solib, mevasi bilan taomlantirishi lozim bo‘lgan daraxt yaratib qo‘yilgan edi, degan gaplari-chi?.. Lekin menda ham ayb yo‘q. hamma yoqda ayg‘oqchilar izg‘iyapdi… ularning nazariga tushmaslik uchun nomiga bo‘lsa ham koyib qo‘yishim kerak. Aslida… boshqalarni xavf ostiga qo‘yib mujda olib keladigan kishi muborak bo‘larmidi?! Amaldorlar qilmishimni ko‘rishdi, erta-indin surishtiruvlar boshlanadi, josuslar barcha voqealarni oqizmay-tomizmay yetkazishadi… va hech kim menga tegmaydi…” –degan o‘y bilan Muborak zotni turtib yuborgani va qilgan ishi yaxshi ish emasligi anglab, qilmishimdan amaldorlar xabar topadi deyishi, bu ishidan o‘zi ham afsusdaligi unda zarracha bo‘lsa ham unda iymon tuyg‘usi borligidan dalolat beradi va o‘z istaklari tufayli emas, amaldorlardan qo‘rqqanidan, unga ziyon berishlaridan cho‘chib shunday ishga qo‘l urgani namoyon bo‘ladi. Asardagi kulminatsiya g‘oyatda ta’sirli yoritib beriladi, ana endi etikdo‘z qilgan qilmishlari uchun javob beradigan payt keldi. Muborak zotni turtib yuborgani uchun etikdo‘zni duoyibad qiladi, etikdo‘zga qarab shunday deydi: “Turgin va ravona bo‘lgin”! (“Men-ku imillamayman, ammo sen mahshar kuni kelishini uzoq kutasan …”,– deyildi unga, “Endi sen to qiyomatga qadar yer yuzida betinim daydishga mahkum etilding” ,–deyildi unga, “Hamda sening qiladigan ishing hech narsa, hech narsa, faqat hech narsa”, –deyildi unga). Shu orqali etikdo‘zga o‘sha mash’um qismat bitildi va – abadiy darbadarlikka mahkum etildi. Natijada Muborak zot kishanlarga o‘rab-chirmab qatl qilinadi, va Tangri taoloning yana bir mahbubi shunday bir tarzda o‘ldirildi. Aytadilarki, qatldan so‘ng olomon uning kimligini asta-sekin tushunib yeta boshlagan va Muborak zotga qo‘l ko‘targan badbaxtni bu yerdan haydab chiqarishgan. Va oxiri Muborak zot va etikdo‘z o‘rtasidagi ziddiyatlar badiiy yechimini topadi, yechimdan so‘ng ham ziddiyatlar, qahramonlar orasidagi chigalliklar hal qilinmaganicha qolaveradi, bu o‘quvchini o‘ylashga, mushohada qilishga undaydi, ya’ni tom ma’nodagi yechimning mavjud emasligi asarning ta’sir kuchini, o‘quvchining ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan usulga aylanadi.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Hayot asli barchamiz uchun imtihon bu imtihon kimgadir boylik kimgadir esa nochorlik tarzida o‘taladi. Bizning qahramonimiz esa o‘zgacha bir tarzda qilgan qilmishi uchun jazosini shu dunyoning o‘zida olgan odamdir. Albatta qilgan qilmishimiz uchun oxiratda barchamiz javob beramiz. Lekin nega u jazosini shu dunyoning o‘zida oldi. Buni sababini etikdo‘zning o‘zi ham anglab yetganini ko‘rishimiz mumkin ya’ni : “Qanchalar uzuq umr berilsa-da bu olamdagi hamma narsa kun kelib sovrilib yo‘q bo‘lib ketishining tirik guvohi bo‘lishim mening hikmatimdir” – deydi etikdo‘z. Etikdo‘zni qismatidagi eng mudhish voqea darbadarligi emas fikrimizcha uning hayotidagi eng mudhish hodisa shuki: u qancha ibodat qilmasin ibodati qabul bo‘lmasligidir, shunday bo‘lsada etikdo‘z ibodatda davom etadi. Aytadilarki, u bir necha yuz yil Tangri Taoloning boshqa bir bilimli va barhayot bandasini – Xizr alayhissalomni izlab dunyo kezgan. Shu bois uni yana Qizildengiz sohillarida ko‘rishgan. Muso alayhissalomning savatidagi baliq dengizga tushib suzib ketgan joyda yillab o‘tirgan. Allohga yaqin insonlardan balki bir yordam kutgandir, u yordam bermasligiga ham aqli yetgan albatta. Chunki taqdirni faqatgina Parvardigorgina belgilaydi. Lekin shunda ham Allohning rahmatidan umidvor, uning rahmati ilinjida dunyo kezadi. Hikoyadan kuzatilgan maqsad—Boqiy darbadar toifasidagi odamlarning ya’ni o‘tmishda qilgan qilmishlari uchun jazo olishi ma’lumligini ko‘rsatish. Shu niyyat etikdo‘z obrazida mujassamlashtirgan. Asar kompozitsiyasi mana shu maqsadga xizmat qildirilgan.

Xulosa

Voqealikni badiiy idrok etish an’anasining ibtidosi sifatida qadim zamonlarda shakllangan mifologik tasavvurlar tizimi folklordagi epik janrlarning syujet silsilasi va obrazlar tarkibining yuzaga kelishiga asos bo‘lagan. Xangzu lashkarboshisi bu shaharni yetti kun izlaydi va nihoyat yettinchi kuni Haybar aniq ravshan ko‘rinadi lekin subh yuz ko‘rsatganda ufqda hech qanaqa shahar ko‘rinmay qoladi. Ular bu ko‘rganlarimiz sarob ekan deb ortlariga qaytib ketishadi. Va sarobiy shahar haqidagi hikoyalar Xangzu sulolasi solnomalaridan o‘rin oladi va bizgacha yetib keladi. Hikoyada eng voqealar rivoji eng yuksak cho‘qqisi deb olish mumkin bo‘lgan voqea mana budir: Insonlar ko‘zidan nihon bu shahar o‘z sirlarini ochavermagach, toqati toq bo‘lgan sayyoh eng baland tepaga chiqadi va munojot qiladi. Umrining besh yilini behuda o‘tkazib kun kechirganini aytadi va unga Tangri taaloga gunohlarini kechirishni so‘rab duo qilishini iltimos qiladi. Uning toqati shunchalar toq bo‘ladi va hasrat qildi va qilgan duolari o‘z ijobatini topadi, u uxlab yotganida kimdir uni bexos uyg‘otadi. Ko‘zini ochganda qo‘l uzatsa yetgulik masofada shahri abadiyani ko‘radi. Yozuvchi bu holatni judayam ta’sirli va yaqqol tarzda aks ettiradiki bu bilan voqea o‘z yechimini topadi: Shahar shu qadar ochiq-oydin namoyon bo‘lgan edik, o‘ynoqi cho‘l shamolining yengil epkinida devoridan shuvillab to‘kilgan tuproqgacha aniq ko‘rinardi. Ulkan, baland darvozasi qalin devorlar orasiga mustahkam qilib o‘rnatilgan edi. Sayyoh bu zuhurotdan sarosimaga tushib qoladi, o‘ziga kelgach, saodat devorlari ortida yashayotgan xurram kishilarni ko‘rish hayajonida, shosha-pisha darvoza tomonga yuguradi... Buni ta’siri tufayli qahramonimiz shu yo‘lda ko‘rgan kechirganlarini to‘plab “Mening Shahri Haybarim” nomli xotira kitobini yozadi. Rivoyatdan ko‘zlangan maqsad shuki insonlarga barhayotlikni qanday azobli ekanini, bunday hayotni orzu qilmaslikni isbotlashdir. Boqiy odamlarni qanday yashayotganini ko‘rgan odamning ko‘ngli buziladi bunga misol qilib quyidagi parchani keltirib o‘tishimiz mumkin. “Bular qarovsiz alfozda, jim o‘tirar edilar”. Rivoyatdan ko‘zlangan maqsad shuki insonlarga barhayotlikni qanday azobli ekanini, bunday hayotni orzu qilmaslikni isbotlashdir. Inson barhayot bo‘lar ekan unga hech nimani qizig‘i qolmasligi dunyodan qadr, mehr-muhabbat bo‘lmasligi tayin sababi oldingdan oqqan suvni qadri yo‘q deyilgan naql ham

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

bejiz keltirilmagan. Yozuvchi asarda boqiy barhayotlarning iztiroblarini nihoyatda haqqoniy tasvirlagan, va insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga harakat qilgan. Romanda qo‘llanilgan bu rivoyat va afsonalarning vazifasi kitobxonga asarni yanada yaxshiroq tushunishga unda targ‘ib qilayotgan g‘oyani o‘ziga singdirishga yordam beradi. Shu bois ham rivoyatlar roman kompozitsiyasida alohida mavqega ega.Shu o‘rinda yakuniy fikr sifatida shuni aytish mumkinki, hayot boqiyligi bilan emas qisqa va mazmunli bo‘lishi bilan hayotdir, “har narsani ozi shirin” deganlaridek, boqiy yashab hech nima, hech nima va hech nima qilmay o‘tgandan ko‘ra Alloh ato etgan umrni uning belgilab bergan yo‘lidan yurib mazmunli o‘tkazish ma’qul.

REFERENCES

1. Abdulkhamidova Hikmatoy Akhrorjon qizi. International Journal on Integrated Education Poetic Characteristics of Chronotopy of Photos in Isajon Sultan's Novel "Free" Indaneziya 2021
2. Abdulkhamidova Khikmatoy Akhrorjon Qizi. Хоразм Маъмун Академияси Ахборотномаси. Isajon Sultonning “Ozod” romanida aks xronotopi. Xorazm 2021
3. Isajon Sulton "Boqiy darbadar" 2010-yil 6-son "Sharq yulduzi"
4. Sulton I Asarlar:roman va qissalar. – Toshkent: “G’ofur G’ulom”, 2017 2-jild.
5. Isajon Sulton nasri badiiyati. Ilmiy maqola va risolalar to‘plami Toshkent. “Turon zamin ziyo” 2017.
6. Khushbokov Jovli, Isadjan Sultan. Conversation. If the prayer of the hand is lucky // Literature and art of Uzbekistan // Issue 31. July 29, 2016.
7. Oxunjon Safarov " O‘zbek xalq og‘zaki ijodi" Musiqa nashriyoti. Toshkent 2010
8. T.Boboyev "Adabiyotshunoslik asoslari" Toshkent. "O‘zbekiston" 2002
9. Xalq og‘zaki poetik ijodi O.Madaliyev. T.Sobitova. Sharq nashriyoti . Matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi
10. Xasanova, X. (2020, December). THE MISSION AND LITERATURE OF LETTERS IN STORIES AESTHETIC FUNCTION. “Actual problems of classical and modern uzbek literature" In *Конференции*.
11. Xasanova, X. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) ARTISTIC AESTHETIC FUNCTION OF LETTERS IN THE NOVEL “PAST DAYS 2020. 532-534-betlar”
12. Нилуфар Тошева Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси (Исажон Султон насри мисолида). Автореферат Тошкент 2020. 21-б
13. Генетик. Исажон Султон. Ozod – Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.217-б
14. Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси: Монография. – Тошкент: “Nurafshon business”, 2021. Б – 48.
15. Abdulxamidova X. Isajon Sultonning “Ozod” romanida aks xronotopi.// Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi. Журнал. 2021, № 1. – Б. 9-13.
16. Abdulxamidova X. Romanchilikda yo‘l xronotopining badiiy-estetik funksiyasi.// ФДУ. Илмий хабарлар. Журнал. 2022, № 6. Б 250-256.
17. Isajon Sulton romanlarida yo‘l xronotopi.// ФДУ. Илмий хабарлар. Журнал. 2022, махус сон. Б. 902-906.
18. Isajon Sulton romanlarida badiiy-psixologik xronotop. // **O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2023,** № 1. Б. – 234-237.

19. Poetic Characteristics of Chronotopy of Photos in Isajon Sultan's Novel "Free". // International Journal on Integrated Education. Indoneziya 2021, B.34-37.
20. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida xronotop Zamonaviy filolgiya va pedagogikaning rivojlanish omillari. 2022 https: // doi.org/ 10.5281/ zenodo. 6582616. B. – 207-210.
21. Isajon Sultoning “Boqiy darbadar” romanida syujet va kompozitsiya. Zamonaviy filolgiya va pedagogikaning rivojlanish omillari.2022.https://doi.org/10.5281/zenodo.6525805. B. – 236-240.
22. Ijodkor uslubida badiiy-psixologik xronotop.// “Zahiriddin Muhammad Boburing jahon ilm-fani, madaniyati taraqqiyotidagi o‘mi va ahamiyati” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - Ilmiy nashr. - Farg‘ona: FarDU, 2023. B. – 558-564.
23. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida vaqt va makon badiiy talqinidagi o‘ziga xoslik.// “Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати” мавзусида илмий-амалий онлайн анжумани. SamDU, 2023. B. – 286-291.
24. Abdulxamidova, X., & Sobirova, M. S. Q. (2022). ISAJON SULTONNING “OT YOLI, SOMON PARCHASI VA TOSHBAQA BOLASI” HIKOYASIDA RIVOYAT VA RAMZIYLIK. *International scientific journal of Biruni*, *1*(3), 45-49.
25. Umarov, D. (2023). THE FIRST STAGES OF UZBEK STORYTELLING. *Modern Science and Research*, *2*(6), 854–859. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/21240
26. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. *Modern Science and Research*, *2*(6), 1104-1106.
27. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO* , *2* (2), 777-785.
28. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, *2*(6), 848-853.
29. Baxtiyorjon o‘g‘li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41
30. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-132
31. СЕМИОТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В ЛИРИКЕ АНВАРА ОБИДЖАНА
32. Qahhor Yo'lchiyev - Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. №1. – C383-387. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xNOt6eMAAAAJ&citation_for_view=xNOt6eMAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
33. LIRIK JANR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR.Q Yo'lchiyev - Scientific journal of the Fergana State University, 2022. № 2.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE



WORDLY
KNOWLEDGE